

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA ESG KONSEPSIYASINI JORIY ETISHNING AKSIYALARI HOLATIGA TA'SIRI

Alikulov Azamat Tuygunovich

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası mudiri, PhD, dotsent.

ORCID-ID: 0000-0001-7717-3274

azamat1441@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada ESG (Environmental, Social, Governance- Atrof-muhit, Ijtimoiy mas'uliyat, Korporativ boshqaruv) tamoyillarining kompaniya imijini shakllantirishdagi o'rni hamda ushbu imij orqali aksiyalar narxiga ta'siri O'zbekiston misolida kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda xalqaro empirik tadqiqotlar, O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari va institutsional islohotlar asosida ESGning investitsiya jozibadorligiga ta'siri baholangan. Shuningdek, ESG ko'rsatkichlari va aksiyalar narxi o'rtasidagi bog'liqlikni o'lchash uchun konseptual empirik model asosida olib borilgan ilmiy ishlar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: ESG, kompaniya imiji, aksiyalar narxi, korporativ boshqaruv, barqaror rivojlanish, aksiyalar bozori, kapital bozori, investitsion jozibadorlik.

Abstract

This scientific article provides a comprehensive analysis of the role of ESG (Environmental, Social, Governance) principles in shaping a company's image and their impact on stock prices through this image, using the example of Uzbekistan. The study assesses the effect of ESG on investment attractiveness based on international empirical research, the normative-legal acts of the Republic of Uzbekistan, and institutional reforms. Additionally, to measure the relationship between ESG indicators and stock prices, scientific studies based on a conceptual empirical model were examined.

Keywords: ESG, company image, stock price, corporate governance, sustainable development, stock market, capital market, investment attractiveness.

Kirish

Global kapital bozorlarida investitsiya qarorlarini qabul qilishda barqaror rivojlanish omillari muhim mezonga aylanmoqda. An'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda kompaniyalarning ekologik mas'uliyati, ijtimoiy siyosati va korporativ boshqaruv sifati investorlar uchun muhim axborot manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu uch yo'nalish ESG konsepsiyasi doirasida mujassamlanadi.

Ilmiy adabiyotlarda ESGning kompaniya qiymatiga ta'siri ko'pincha kompaniya imiji orqali izohlanadi. Ijobiy reputatsiya axborot asimmetriyasini kamaytiradi, investorlar ishonchini mustahkamlaydi va aksiyalar narxining barqaror o'sishini ta'minlaydi [1]. O'zbekiston sharoitida esa fond bozori rivojlanishining dastlabki bosqichida ESG tamoyillarini joriy etish milliy kompaniyalarni xalqaro kapital bozorlariga integratsiya qilishda muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida korporativ boshqaruvni takomillashtirish, yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur jihatlar ESGni amaliyotga tatbiq etish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Metodologiya. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi yondashuvlarni o'z ichiga oladi:

- Nazariy tahlil – ESG, kompaniya imiji va aksiyalar narxi o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiruvchi ilmiy konsepsiyalarni o'rganildi;
- Taqqoslama tahlil – rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ESG amaliyotlarini solishtirildi;
- “SWOT” tahlil – ESGning kuchli, zaif, imkoniyatlari, tahdidlarini baholash uchun foydalanildi;
- Normativ-huquqiy tahlil – O'zbekiston Respublikasining Korporativ boshqaruv kodeksi, “Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi” va fond bozori to'g'risidagi hujjatlar tahlil qilindi.

Natijalar. Xalqaro va institutsional tahlil natijalari quyidagi xulosalarni beradi:

1. ESG orqali kompaniya imijining yaxshilanishi haqida ESGga rioya qiluvchi kompaniyalar jamoatchilik va investorlar orasida yuqori ishonchga ega bo'lishi [2] bilan izohlanadi.
2. ESG yuqori bo'lgan kompaniyalarda jakb qilinajak kapital qiymatining pasayishi haqida ESG shaffofligi moliyaviy va reputatsion xatarlarni kamaytiradi, bu esa kapital jalb qilish xarajatlarini qisqartiradi [3] degan fikrlar ilgari surilgan.
3. ESG aksiyalar narxining barqarorligi ta'siri ESG reytingi yuqori kompaniyalarda bozor tebranishlariga chidamlilik kuchliroq namoyon bo'ladi [4] va bu kompaniya aksiyalarining narxiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

1-jadval. ESG konsepsiyasining SWOT tahlili¹

Kuchli jihatlar (Strengths)	Zaif jihatlar (Weaknesses)
• Kompaniya imijini va reputatsiyasini yaxshilaydi	• ESG joriy etish uchun dastlabki xarajatlar yuqori
• Investorlar ishonchini oshiradi	• ESG bo'yicha malakali mutaxassislar yetishmasligi
• Aksiyalar narxining barqarorligini ta'minlaydi	• Hisobot berish tizimining murakkabligi
• Moliyaviy va reputatsion risklarni kamaytiradi	• Qisqa muddatda moliyaviy natija sezilmasligi
• Korporativ boshqaruv shaffofligini kuchaytiradi	• Milliy ESG standartlarining to'liq shakllanmaganligi
Imkoniyatlar (Opportunities)	Tahdidlar (Threats)
• Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyati	• ESGni formal (nomigagina) joriy etish xavfi

¹ Mallif ishlanmasi

• Xalqaro kapital bozorlariga chiqish (IPO, SPO)	• ESG talablariga rioya qilmaslik reputatsion zararga olib kelishi
• Yashil moliyalashtirish va grantlardan foydalanish	• Global ESG talablarining tez-tez o'zgarishi
• Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash siyosati	• Past shaffoflik investorlar ishonchini pasaytirishi
• Barqaror iqtisodiy o'sishga hissa qo'shish	• ESG ma'lumotlarini noto'g'ri talqin qilish

Mazkur SWOT tahlil ESG tamoyillarining kompaniyalar faoliyatida strategik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Kuchli jihatlar va imkoniyatlar uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlasa, zaif jihatlar va tahdidlar ESGni tizimli va institutsional yondashuv asosida joriy etishni talab qiladi.

O'zbekistonda ESGni joriy etish natijasida:

- davlat ulushi mavjud yirik kompaniyalarning IPO va SPO jarayonlari samaradorligi oshadi;
- xorijiy institutsional investorlar uchun axborot ochiqligi ta'minlanadi;
- milliy fond bozori likvidligi va chuqurligi ortadi.

Muhokama. ESGning aksiyalar narxiga ta'siri to'g'ridan-to'g'ri emas, balki kompaniya imiji orqali bilvosita namoyon bo'ladi. O'zbekiston sharoitida ESG tamoyillarini joriy etish institutsional muhit bilan chambarchas bog'liq. Korporativ boshqaruv kodeksining joriy etilishi, mustaqil direktorlar instituti va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga moslashtirilishi ESGning "G" komponentini kuchaytiradi. Shu bilan birga, ESGni amaliyotga tatbiq etishda muammolar mavjud: milliy ESG reytinglarining yo'qligi, mutaxassislar yetishmasligi va kompaniyalarda barqarorlik hisobotlarini tayyorlash tajribasining cheklanganligi. Biroq ushbu muammolar bosqichma-bosqich bartaraf etilishi mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ESG tamoyillari kompaniya imijini mustahkamlash orqali aksiyalar narxining barqaror o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston uchun ESGni joriy etish fond bozorini rivojlantirish, investitsiya

jozibadorligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Shu bois, ESG siyosatini davlat darajasida qo'llab-quvvatlash va kompaniyalar faoliyatiga integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Friede, G., Busch, T., & Bassen, A. (2015). ESG and financial performance: Aggregated evidence from more than 2000 empirical studies. *Journal of Sustainable Finance & Investment*, 5(4), 210–233.
2. Eccles, R. G., Ioannou, I., & Serafeim, G. (2014). The impact of corporate sustainability on organizational processes and performance. *Management Science*, 60(11), 2835–2857.
3. OECD. (2020). *ESG investing and climate transition*. OECD Publishing.
4. MSCI. (2021). *ESG ratings and stock performance*. MSCI Research Report.
5. World Bank. (2022). *Corporate governance and sustainability in emerging markets*. World Bank Publications.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). *2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi*.
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi. (2019). *Korporativ boshqaruv kodeksi*.